



КАЗАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБАЙ



«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI, MADANIYATI»

MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rganish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

G.Norimova – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,
Y.Shirnova, M.Yo'ldosheva.

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.



“O‘quvchi pasporti” namunasi:**Bo‘lim****O‘quvchining javobi**

Matndan tushunganim ...

Yangi o‘rgangan so‘zlarim ...

E‘tiborimni tortgan epizod ...

Shaxsiy fikrim ...

3. Innovatsion metodlar. Quyidagi biz tavsiya etayotgan yangi metodlar tajribalarimizga ko‘ra zamonaviy ta‘limga muvaffaqiyatli tatbiq etiladi:

“O‘quvchi pasporti” – o‘quvchining asarni qanday tushunganini qayd etuvchi individual hujjat;

“Maxfiy axborot” – o‘quvchini ramziy qatlamlarni ochishga undovchi interfaol topshiriq;

Proyekt asosida o‘qitish – asar asosida video, podkast, prezentatsiya tayyorlash orqali chuqur o‘zlashtirish.

Xulosa. Mumtoz nasriy asarlarni tahlil qilish bugungi ta‘limda an‘anaviy metodlar bilan cheklanmasligi kerak. Kontekstual, talqinli va estetik yondashuvlarni birlashtirgan algoritmik usullar o‘quvchida ijodiy tafakkur, mushohadali o‘qish, ma‘naviy anglash kompetensiyasini shakllantiradi. Shu bilan birga, tarixiy metodlarning zamonaviy ta‘limga moslashtirilgan ko‘rinishlari – bugungi adabiy ta‘limning muhim omiliga aylanishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Yo‘ldoshev Q. O‘zbek adabiyoti o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005.
2. Zunnunov A. O‘zbek mumtoz adabiyotini o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Fan, 1996.
3. To‘raqulov N. O‘quvchilarda adabiy tafakkurni shakllantirish. – Toshkent: TDPU, 2017.
4. Qo‘chqorova N. Mumtoz asarlar va yoshlar estetik tarbiyasi. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2010.
5. Turaqulova G. Zamonaviy dars texnologiyalari va adabiyot fani. – Toshkent: TDPU, 2018.

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/THDJ9773

**ALISHER NAVOIY RUBOIY VA QIT‘ALARINING BADIY KUCHI VA ULARNI
O‘QITISHNING SAMARALI USULLARI**

Abdullayeva Dildora Shokir qizi

*tayanch doktorant, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va
adabiyoti universiteti
dildorashokirqizi96@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiy ijodining muhim qismi bo‘lgan ruboiy va qit‘alarining badiiy-estetik xususiyatlari hamda ularni o‘quvchilarga o‘rgatishning samarali metodik usullari tahlil etiladi. Navoiy asarlarining mazmun va shakl jihatidan yuksak darajadagi badiiy kuchi, qisqa janrlar orqali chuqur falsafiy fikr va axloqiy g‘oyalarni ifodalashi



ochib beriladi. Maqolada, shuningdek, bu janrdagi asarlarni o'rganish jarayonida adabiyot o'qituvchilari foydalanishi mumkin bo'lgan interfaol usullar, tahliliy yondashuvlar va tarbiyaviy imkoniyatlar yoritiladi. Tadqiqot natijalari Alisher Navoiy merosini o'quvchilarga chuqur va ta'sirli tarzda yetkazish, ularning ma'naviy tafakkurini boyitish imkoniyatlarini ko'rsatib beradi.

Kalit so'zlari: Alisher Navoiy, ruboiy, qit'a, badiiy tahlil, adabiyot o'qitish, metodika, estetik tarbiya, interfaol usullar, qisqa lirik janrlar, ma'naviy rivojlanish.

Abstract: This article analyzes the artistic and aesthetic qualities of Alisher Navoi's rubai and qit'as, which constitute a significant part of his literary heritage, as well as effective methodological approaches to teaching these forms in literature classes. The study highlights the deep philosophical meanings and moral ideas conveyed through these short poetic genres, along with their refined poetic expression. It also explores interactive methods, analytical strategies, and educational potentials that can be employed by literature teachers to make Navoi's legacy more accessible and impactful for students. The findings demonstrate how these works can be used to enrich learners' spiritual and intellectual development.

Keywords: Alisher Navoi, rubai, qit'a, literary analysis, literature teaching, methodology, aesthetic education, interactive methods, short lyrical genres, spiritual development.

Аннотация: В данной статье анализируются художественные и эстетические особенности рубаи и кыт'а Алишера Навои, которые составляют важную часть его литературного наследия, а также рассматриваются эффективные методические подходы к их преподаванию на уроках литературы. Особое внимание уделяется глубокому философскому содержанию и нравственным идеям, передаваемым через эти краткие поэтические жанры. В статье предложены интерактивные методы, аналитические приемы и воспитательный потенциал, которые могут быть использованы преподавателями для более глубокого и осмысленного ознакомления учащихся с творчеством Навои. Полученные результаты показывают значимость данных произведений в духовно-нравственном развитии учащихся.

Ключевые слова: Алишер Навои, рубаи, кыт'а, литературный анализ, преподавание литературы, методика, эстетическое воспитание, интерактивные методы, малые лирические жанры, духовное развитие.

Alisher Navoiy o'zbek mumtoz adabiyotining zabardast vakili, xalqimizning ma'naviy-ma'rifiy tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk shaxsdir. Uning she'riy merosi Sharq adabiyoti xazinasining eng yuksak namunalaridan biri bo'lib, zamonlar osha o'zining ahamiyatini yo'qotmagan. Navoiy ijodining muhim qismini tashkil etuvchi ruboiy va qit'alar qisqa hajmda bo'lsa-da, chuqur falsafiy mazmun, axloqiy teranlik va badiiy go'zallikka boydir. Ushbu janrlar orqali shoir nafaqat estetik zavq ulashadi, balki insonni ma'rifat, komillik, adolat, sabr va hayot haqiqatlarini anglashga chorlaydi. Shunday bo'lsa-da, bu asarlarni maktab yoki oliy ta'lim muassasalarida samarali o'rgatish uchun zamonaviy, tahliliy va interfaol metodlarga ehtiyoj katta.

Bugungi tez o'zgarayotgan zamonda yosh avlodni ma'naviy barkamol, tafakkuri teran, milliy qadriyatlarga sodiq etib tarbiyalash vazifasi o'z dolzarbligini tobora oshirib bormoqda. Bu jarayonda milliy adabiyotimizning bebaho namunalarini o'rganish va o'rgatish muhim vositalardan biri sanaladi. Ammo bu janrlardagi asarlarni o'quvchilarga samarali yetkazish, ularning badiiy-estetik zavqini uyg'otish, falsafiy teranlikni anglatish oson emas. Bu esa adabiyot o'qituvchilaridan yangi yondashuvlar, tahliliy metodlar va interfaol o'qitish texnologiyalarini qo'llashni talab qiladi.



6-sinf Adabiyot darsligidan quyidagi ruboiyni havola etamiz:

So'zdurki nishon berur o'lukka jondin,
So'zdurki berur jonga xabar jonondin.
Insonni so'z ayladi judo hayvondin,
Bilkim, guhari sharifroq yo'q ondin²³⁷.

Bu ruboiyda Alisher Navoiy "so'z" tushunchasini markaziy mavzu qilib oladi. U so'zni oddiy aloqa vositasi emas, balki ruhiy, ma'naviy hamda ijtimoiy jihatdan qudratli kuch sifatida tasvirlaydi.

So'z – o'lik narsaga jon bag'ishlaydigan kuchga ega. Bu o'rinda "o'likka jon berish" – ramziy ma'noga ega. Ya'ni so'z odamning qalbini uyg'otadi, fikrini anglatadi, g'amgin qalbni ruhlantiradi. Ikkinchi misrada so'z orqali oshiq o'z yoridan xabar oladi, natijada ruhiy bog'lanish yuzaga keladi. So'z qalbdagi nozik kechinmalarni ifoda etuvchi muhabbat vositasi sanaladi. Keyingi misrada insonni boshqa mavjudotlardan ajratib turuvchi belgi aql bilan birga so'zlashish, til, nutq, fikr bildirish qobiliyatidir deyilgan. So'nggi misrada esa so'zdan ulug', sharifroq gavhar yo'qdir. Navoiy so'zni bebaho dur, ilohiy ne'mat sifatida ulug'laganini anglashimiz mumkin.

Ushbu ruboiy o'quvchilarga so'zning mas'uliyatini anglash, nutq madaniyatiga e'tiborli bo'lish, insoniylikning yuksak belgisi sifatida so'zning qadriyatini tushunishga yordam beradi.

Topshiriqlar!

1. "So'z insonni hayvondan ajratadi" degan fikrga izoh bering. Munosabatingizni asoslab berishga harakat qiling.

2. Ruboiyning asosiy g'oyasidan kelib chiqib, "So'z kuchi" mavzusida kichik guruhlar bilan munozara qiling.

3. Ruboiyning mantiqiy davomiga mos ravishda siz ham 1-2 misra yozib ko'ring.

Darsni yanada qiziqarli va jonli tarzda olib borish uchun quyidagi samarali usullarni ko'rib chiqamiz.

1. *Rolli o'yin*: O'quvchilarga ikki qarama-qarshi rol beriladi. Biri "so'z"ni qadrllovchi, biri esa "amal har narsadan ustun" deb hisoblovchi bo'lishsin. Ular orasida bahs o'tkaziladi.

2. *Aforizm topish*: O'quvchilar "so'z" haqida mashhur hikmatli so'zlar topib, taqqoslashlari lozim.

Mumtoz lirik asarlarni bu kabi usullar orqali o'qitish o'quvchilar uchun nima beradi?

Birinchidan, o'quvchi ruboiyni faqat yodlab qolmaydi, uning mazmunini chuqur anglaydi. So'zlar ortidagi falsafiy ma'noni topishga harakat qiladi, bu esa intellektual tafakkurni kuchaytiradi.

²³⁷ Mirzayeva Z., Jalilov K. 6-sinf Adabiyot. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 71-bet



Ikkinchidan, munozara, ijodiy mashqlar orqali o'quvchi fikrini ravon, mantiqiy tarzda bayon qilishni o'rganadi. Bu esa uning hayotdagi ijtimoiy faolligini ham oshiradi.

Uchinchidan, Navoiydek mutafakkir orqali go'zallikni ko'rish, qadrlash, axloqiy qadriyatlarni tushunish qobiliyati shakllanadi. O'quvchi so'zning odatiy ma'noda emas, ruhiy va ma'naviy kuch sifatida qabul qilishga o'rganadi.

To'rtinchidan, hamkorlikda ishlash va ijtimoiy ko'nikmalar ortadi. Guruhlarda ishlash, rolly o'yinlar va bahs-munozaralar orqali o'quvchilar bir-birini tinglash, bahslashish, fikrni hurmat qilishni o'rganadi.

“Bugungi globallashuv davrida barcha fanlar qatorida adabiyot fanini o'qitishning texnologik usullari kundan kunga rivojlanib borayapti. Xususan, axborot kompyuter texnologiyalari, virtual laboratoriyalar, internet va boshqa elektron tarmoqlar imkoniyatlaridan foydalanish ta'lim oluvchilarning badiiy matnni anglashlarida sezilarli natijalarni bermoqda”²³⁸.

7-sinf Adabiyot darsligidan quyidagi qit'ani havola etamiz:

Ilmdin kasb qilki, sud ermas,
Charx mushkillarini hal qilmoq.
Lekin ul ilm dog'i naf' etmas,
Bilibon bo'lmasa amal qilmoq²³⁹.

Bu misralarda shoir ilmning asl mohiyatini ochib beradi. Ilm olish – yuksak ne'mat, ammo uni faqat dunyoviy manfaat yo'lida ishlatish to'g'ri emas. “Ilmdin kasb qilki, sud ermas” degan satrda Navoiy ilmni faqat boylik orttirish uchun emas, hayot mushkullarini hal qilish, jamiyatga foyda keltirish uchun o'rganish kerakligini uqtiradi.

Keyingi misralarda esa shoir chuqur haqiqatni bayon qiladi: bilim – amal bilan bezanmaguncha, foydali bo'la olmaydi. “Ul ilm dog'i naf' etmas” – ya'ni ilm o'zi bilan hech qanday samara bermaydi, agar egasi unga amal qilmasa. Navoiy nazarida haqiqiy olim nafaqat biladigan, balki o'sha bilim asosida yashaydigan insondir.

Bu qit'a bugungi kunda ham juda dolzarb. Zamonaviy jamiyatda ham inson faqat bilimga emas, uni hayotga tatbiq etish qobiliyatiga qarab baholanadi. Ayniqsa, yosh avlodni ilmga chanqoq, lekin halol, amalga sodiq qilib tarbiyalashda ushbu qit'aning tarbiyaviy kuchi beqiyosdir.

Topshiriq!

1. Quyidagi so'z va iboralarning ma'nosini o'rgatish: “kasb qilmoq”, “sud ermas”, “charx mushkili”, “naf' etmas”, “amal qilmoq”.

Jamoaviy so'z lug'atini tuzish. Har bir guruh bitta iborani tushuntiradi, izoh beradi.

2. Quyidagi savollar asosida suhbat tashkil eting:

²³⁸ Mirzayeva Z., Jalilov K. “Adabiyot o'qitish metodikasi” (an'anaviylikdan zamonaviylikka) uslubiy qo'llanma. – Toshkent 2020. – 85-bet.

²³⁹ Mirzayeva Z., Jalilov K. 7-sinf Adabiyot. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 126-bet.



- a) shoir ilm haqida nima deyapti?
- b) "sud ermas" degani nima?
- d) ilmga amal qilish nima uchun muhim?

3. A: "Ilm va amal" mavzusida 6-7 gapdan iborat kichik matn yozing.

B: Ushbu qit'a asosida sahna ko'rinishi tayyorlang. Masalan, ikki do'stdan biri ilimli, lekin amal qilmaydi, boshqasi kam bilimli, lekin halol va mehnatkash. Ular bahs qilishlari lozim.

4. O'quvchilar guruhlariga bo'linadi va quyidagi savolga javob izlashi kerak: "Ilmga ega bo'lgan, lekin amal qilmaydigan odamni foydali yoki ilmi kam, ammo yaxshi amallar qiladiganmi?"

Mumtoz lirik asarlarni bu kabi usullar orqali o'qitish o'quvchilar uchun nima beradi?

Avvalo, Mumtoz adabiyotga qiziqish uyg'otadi. Ko'pchilik o'quvchilar mumtoz asarlarni "tushunarsiz" deb his qilishadi. Suhbat, bahs, sahna ko'rinishlari, ijodiy topshiriqlar orqali ular asar mohiyatini oson, hayotiy tarzda anglaydi. Bu yondashuv o'quvchini faol ishtirokchi qiladi, oddiy tinglovchi emas. Natijada ular mumtoz adabiyotga mehr bilan qaray boshlaydi, undan saboq oladi.

Ikkinchidan, ma'naviy va axloqiy tarbiya beradi. Mumtoz lirik asarlar ayniqsa, Navoiy kabi buyuk shoirlar ijodi insonlarga halollik, sabr, to'g'rilik, ilm va amal uyg'unligi, dunyoqarash kabi yuksak insoniy fazilatlarni singdiradi. Bu orqali o'quvchilar o'zini hayot va jamiyatdagi o'rnini anglaydi, mas'uliyat hissi shakllanadi.

Uchinchidan, til, tafakkur va ijodiy salohiyatni rivojlantiradi. Bunday darslar orqali o'quvchilar qadimgi turkiy so'zlar, iboralar ma'nosini o'rganadi – bu esa til boyligini oshiradi. Dramatik chiqish, guruhli bahs orqali nutq, fikr bayoni va ijodiy yondashuv rivojlanadi. Mumtoz lirikani hayotga bog'lab tushunish esa kontekstual tafakkurni kuchaytiradi.

"Talim-tarbiya jarayoni o'quvchilar uchun hayotga tayyorgarlik bosqichi emas, balki hayotning o'zi bo'lishi kerak"²⁴⁰

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy ruboiy va qit'alari – badiiy jihatdan nafis, falsafiy jihatdan teran, tarbiyaviy jihatdan esa g'oyat boy meros hisoblanadi. Bu asarlar o'zida nafaqat adabiy mahoratni, balki inson ruhiyatiga chuqur ta'sir etuvchi axloqiy, ma'naviy va falsafiy g'oyalarni mujassam etgan. Har bir ruboiy yoki qit'a insonni chuqur o'yga chorlaydi, hayotning ma'nosi, ezgulik, vijdon, sabr-toqat kabi muhim tushunchalarni teran anglashga yordam beradi. Ayniqsa, bugungi globallashuv va axborot oqimi kuchaygan davrda yoshlar qalbiga milliy g'urur, qadriyat va axloqiy mezonlarni singdirishda Navoiy ijodining o'rni beqiyosdir. Shu sababli adabiyot o'qituvchilari Alisher Navoiy ruboiy va qit'alaridan nafaqat badiiy namunalar sifatida foydalanishlari, balki ular orqali o'quvchilarga hayotiy saboqlar, insoniy fazilatlar, ezgulik va

²⁴⁰ Йўлдошев Қ. Жилowlанмаган тафаккур маҳсули. Тошкент: Тафаккур нашриёти, 2023. 30 б.



ma'naviyat haqida chuqur bilim berishlari zarur. Ushbu janrlarni o'rganish nafaqat o'quvchilarning dunyoqarashini boyitadi, balki ularni mustahkam iymon-e'tiqodga, halollik va mehr-oqibatga asoslangan yetuk shaxslar sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Shunday qilib, Alisher Navoiy ijodidagi ruboiy va qit'alarni chuqur o'rganish va o'rgatish bugungi yosh avlod tarbiyasida muhim o'rin egallaydi. Bu asarlar adabiy-estetik didni shakllantiradi, ruhiy olamni boyitadi, qalbgga ezgulik urug'ini qadab, ma'naviy barkamollikka yo'l ochadi.

Adabiyot:

1. Mirzayeva Z., Jalilov K. 6-sinf Adabiyot. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 220 b.
2. Mirzayeva Z., Jalilov K. 7-sinf Adabiyot. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 221 b.
3. Mirzayeva Z., Jalilov K. "Umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturi: o'qitish metodikasi (metodik qo'llanma)". – Toshkent 2020. – 139 b.
4. Mirzayeva Z., Jalilov K. "Adabiyot o'qitish metodikasi" (an'anaviylikdan zamonaviylikka) uslubiy qo'llanma. – Toshkent 2020. – 170 b.
5. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi birinchi kitob. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 398 b.
6. Йўлдошев Қ. Жилowlанмаган тафаккур маҳсули. Тошкент: Тафаккур нашриёти, 2023. 474 б.
7. www.ziyonet.uz
8. www.ziyo.uz.com

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/RBVT5358

O'ZBEK BOLALAR ADABIYOTIDA YANGILANISH EHTIYOJI

Gulnoza Juraeva Axmatovna

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi professori*

Annotatsiya: Bolalar adabiyotida mavzu va uslubning zamon talablariga mos ravishda yangilanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Inson faoliyati va turmush tarzidagi o'zgarishlar adabiyotga ham ta'sir ko'rsatib, uning shakl va mazmunini o'zgartirishga undaydi. Zamonaviy bolalar she'riyatida an'anaviy va innovatsion yondashuvlarni uyg'unlashtirish, raqamli texnologiyalar bilan bog'liq motivlarni aks ettirish lozim. Xalq og'zaki ijodi va mumtoz adabiyot an'analari ham saqlangan holda, bolalar uchun qiziqarli, o'qishga arzigulik asarlar yaratish muhim. Ushbu maqola bolalar adabiyotining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilib, yangi yo'nalishlarni tavsiya etadi.

Kalit so'zlar: bolalar adabiyoti, zamonaviylik, an'ana, innovatsiya, xalq og'zaki ijodi, texnologiya, she'riyat, tasavvuf, fantastika, tarbiya.

Аннотация: Обновление тематики и стиля детской литературы в соответствии с требованиями времени имеет важное значение. Изменения в деятельности и образе жизни человека влияют на литературу, побуждая её трансформировать форму и содержание. В современной детской поэзии необходимо сочетать традиционные и инновационные подходы, отражать мотивы, связанные с цифровыми технологиями.



<i>Botirova Nigora Nurulla qizi. DARSLIKLARDA BERILGAN HIKOYA NAMUNALARINI O'QITISH METODIKASI</i>	881
<i>Ibroximova Surayyoxon Shodibek qizi. ZAMONAVIY ADABIYOT DARSLARIDA MODULLI TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH</i>	887
<i>Ismoilova Maxliyo Atxamali qizi. ADABIYOT O'QITISHDA EPISTOLYAR NAMUNALARDAN FOYDALANISH (MUSO TOSHMUHAMMAD O'G'LI OYBEK IJODI MISOLIDA)</i>	893
<i>Meliboyeva Dilafruz Abdurahim qizi. 6-SINF ADABIYOT DARSLARIDA SINFDAN TASHQARI O'QISH MASHG'ULOTLARINI O'TKAZISH YUZASIDAN MULOHAZALAR</i>	898
<i>Meyliyeva Nasiba Tolmas qizi. 5–7-SINFLAR ADABIYOT DARSLARIDA SHE'RIY ASARLARNING BADIY TIL XUSUSIYATLARINI O'RGATISH METODIKASI: MIRTEMIR VA ANVAR OBIDJON SHE'RLARI MISOLIDA</i>	903
<i>Nomozova Dilobar Suyun qizi. FAXRIYOR SHE'RIYATINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR</i>	908
<i>Qodirova Dilnoza Alisher qizi. ADABIY TA'LIMDA O'QUVCHILARNING REFLEKSIV KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA</i>	916
<i>Qosimova Munisa Botirjon qizi. KEYS TEXNOLOGIYASINING O'QUVCHILAR FAOLLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI</i>	920
<i>Raxmatova Karima Erkinovna. DRAMATIK YARATIQLARNI O'QITISH QANCHALIK MUHIM?</i>	925
<i>Saydullayeva Shoiraxan Kaxramon qizi. TARIXIY ROMANLARNI O'QITISHDA KONSPIROLOGIYA NAZARIYASIDAN FOYDALANISH</i>	930
<i>To'g'onova Dinoraxon Mansurjon qizi. ADABIYOT DARSLARIDA INTERAKTIV O'QITISH MODELINING AMALIY TARAQQIYOTI VA AMALIYOTI</i>	935
<i>Toshpulatova Marjona Jamoliddinovna. UMUMTA'LIM BOSQICHLARIDA "XAMSA" DOSTONINI O'QITISH</i>	942
<i>Xolova Sabina Jo'raqulovna. LIRIK ASARLARNI O'QITISHGA XOS YONDASHUVLAR (O'ZBEKISTON VA TURKIYA TA'LIM TIZIMI MISOLIDA)</i>	950
<i>Xudoynazarova Sug'diyona Tillamurodovna. ADABIYOT DARSLARIDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI</i>	953
<i>Xujanova Nilufar Do'smat qizi. GLOBALASHUV SHAROITIDA RAQAMLI SAVODXONLIKNING TA'LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATI</i>	958
<i>Xo'jayeva Mohinur Tulqinovna. ADABIYOT DARSLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH IMKONIYATLARI</i>	964
<i>Norqulov Nurzod Saidmurodovich. MUMTOZ NASRIY ASAR TAHLILI YUZASIDAN ZAMONAVIY QARASHLAR</i>	968
<i>Abdullayeva Dildora Shokir qizi. ALISHER NAVOIY RUBOIY VA QIT'ALARINING BADIY KUCHI VA ULARNI O'QITISHNING SAMARALI USULLARI</i>	972

